

MOLIYA TIZIMINING IQTISODIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI

O'.Baytanov

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dotsenti v.b

R.Akbaraliyeva

Kibersport fakulteti 531-22 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16891889>

Annotatsiya: Maqolada davlat moliya tizimining iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'рни va iqtisodiy mohiyati aks ettirilgan. Shuningdek, davlat moliyasining iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi funksiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Davlat moliyasi, funksiya, davlat, nazorat.

Аннотация: В статье отражена роль и экономический характер государственной финансовой системы в экономических отношениях. Также освещаются функции государственных финансов в осуществлении экономических реформ.

Ключевые слова: государственные финансы, функция, государство, контроль.

Moliyaning iqtisodiy kategoriya sifatidagi tabiati va mohiyati uning bajaradigan funksiyalarida namoyon bo'ladi.

Funksiya ob'ekt ichki mohiyati konkret shaklining namoyon bo'lish jarayonidir. Moliyaning funksiyalarini bilish moliya siyosatini amalga oshirish uchun zarurdir. Moliya fani nuqtai-nazaridan davlat moliyasi, xo'jalik sub'ektlari moliyasi va uy xo'jaliklari moliyasi funksiyalarining ma'lum darajada birligi mavjud. Shu bilan bir vaqtda, ular o'rtasida farqlar ham mavjudki, bu holat bir tomondan, umumdavlat manfaatlaridan va boshqa tomondan esa, korxonalar faoliyatining tadbirkorlik jihatlari hamda fuqarolar shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqadi.

Moliyaning funksiyalari yuzasidan iqtisodchi-olimlar o'rtasida qator bahsli holatlar mavjud.

Bir qator taniqli moliyachilar moliyaning uchta funksiyasi mavjudligini e'tirof etishadi.

A.M. Birman moliyaning quyidagi funksiyalari mavjudligini e'tirof etadi:

- xo'jalik yuritish jarayonini pul mablag'lari bilan ta'minlash;
- nazorat;
- taqsimlash.

A.M. Aleksandrov va E.A. Voznesenskiy tasdiqlaydiki, moliya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- pul fondlarini shakllantirish;
- shakllantirilgan pul fondlaridan foydalanish;
- nazorat.

I.T. Balabanovning fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaning taqsimlash funksiyasi o'zining mazmunini yo'qotadi.

Iqtisodchi V.M. Rodionovanning fikriga ko'ra, moliya taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajaradi.

A.M.Babich, L.N.Pavlovalarning fikricha, butun moliya tizimi uchun qator funksiyalar - rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishini e'tirof etishadi.

Iqtisodiy sub'ektlarning asosiy manfaati foyda olish hisoblanadi. Foyda markazlashtirilmagan pul fondlarining asosiy moliyaviy manbaidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik ko'p ukladli shakllarini paydo bo'lishi va bozor iqtisodiyotining amal qilishi to'liq iqtisodiy mustaqillikni ta'minlovchi demokratik tizimni shakllantirishni ob'ektiv zarur qilib qo'yadi. Bunday sharoitda iqtisodiy sub'ektlar faoliyatining moliyaviy natijalari, ya'ni tadbirkorlik foydasini taqsimlash ular tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarga bog'liqdir.

Turli darajadagi ko'p sonli fondlarni shakllantirishning asosiy moliyaviy manbalari nima hisoblanadi?

Albatta bunda makrodarajada yalpi ichki mahsulot eng birinchi manba bo'lib hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulotni taqsimlash jarayoni turli xil moliyaviy vositalar: me'yorlar, stavkalar, tariflar, ajratmalar va boshqa moliyaviy instrumentlar vositasida amalga oshiriladi.

Mikrodarajada esa uning manbai korxonalar pul daromadlari va jamg'armalari hisoblanadi.

Moliyaning nazorat funksiyasi - bu ob'ektiv tarzda amal qiluvchi pul munosabatlari jarayonlarini nazorat qilishdir.

Moliya nazorat funksiyasining ob'ekti bo'lib xo'jalik sub'ektlari faoliyatining moliyaviy natijalari hisoblanadi.

Nazorat funksiyasi vositasida esa, pul fondlarining shakllanishi jarayonlarini iqtisodiy qonuniyatlar, me'yorlar asosida amalga oshirishni nazorat qiladi.

Davlatning paydo bo'lishi bilan moliyaning paydo bo'lishini izohlash uchun davlatning jamiyat iqtisodiy tizimidagi roli va unga tegishli bo'lgan funksiyalarni

asoslash lozim. Davlatning iqtisodiy roli uning quyidagi funksiyalarida namoyon bo'ladi: tartibga solish, qayta taqsimlash, ijtimoiy, nazorat.

Tartibga solish funksiyasi: Davlat ishtiroki zarur bo'lgan shunday sohalar mavjudki, ularning to'laqonli amal qilishida davlat ishtiroki belgilovchi ahamiyat kasb etadi (masalan, mudofaa, davlat boshqaruv apparatini saqlash, ijtimoiy sohalar, aholini ijtimoiy himoyalash tizimlari va boshqalar). Davlat turli xil institutsional tizimlar vositasida iqtisodiy siyosatni amalga oshiradi. Davlatning tartibga solish funksiyasining bajarilishi tartibga solishning qator sohalarida ta'minlanadi: davlat moliyasi, pul muomalasi, nakd pulsiz hisob-kitoblar, valyuta kurslari, iqtisodiy havfsizlik va boshqalar.

Qayta taqsimlash funksiyasi. Yaratilgan milliy daromad ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida qayta taqsimlashning ob'ekti hisoblanadi. Bunda qayta taqsimlash mexanizmining vositasi va ijrochilari sifatida soliq tizimi hamda byudjet tizimi maydonga chiqadi.

Ijtimoiy funktsiya. O'tish davrining asosiy muammosi hisoblanuvchi ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirish va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoya qilish davlatning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Bu funktsiyaning amal qilish mexanizmi davlatning quyidagi yo'nalishlardagi aniq tadbirlari orqali ta'minlanadi: ijtimoiy transfertlar tizimi, respublika va mahalliy darajadagi ijtimoiy dasturlar, adresli ijtimoiy yordamlar.

Moliyaning quyidagi tamoyillari amal qiladi: birlik (yaxlitlik); balanslilik; maqsadga yo'naltirilganlik; sharoitga moslashuvchanlik; strategik asoslarga tayanuvchanlik.

Moliyaning birlik (yaxlitlik) tamoyili shuni xususiyatlaydiki, moliya munosabatlarining barcha sub'ektlari uchun qonun va me'yoriy-huquqiy asoslarning, pul, kredit va soliq tizimlarining, moliyaviy xujjatlar va hisobotlar shakllarining, moliyaviy operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibining, harajatlar va moliyaviy natijalarni shakllantirishning, moliyaviy, to'lov-hisob-kitob va soliq intizomlarini buzganligi uchun jazolar qo'llashning yaxlitligi, umumiyli va hamma uchun birdayligi amal qiladi.

Balanslilik tamoyili shuni anglatadiki, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulki qiymatining baholanishi ularni shakllantirishning aniq manbalariga jumladan, tushumlar va daromadlar hisobiga, o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar va bank kreditlari kabilarga egadir.

Agar mulk faqat o'z daromadlar hisobiga shakllantirilgan bo'lsa, xo'jalik sub'ektining kontagentlar oldidagi moliyaviy majburiyatlari va tashqi qarzi bo'lmaydi. Biroq, har qanday xo'jalik sub'ektining byudjet oldidagi va davlatning



byudjetdan tashqari maxsus maqsadli fondlari oldidagi majburiyatlarini unutmash lozim.

Agar mulk shakllanishida bank krediti yoki boshqa manbalar ham ishtiroki bo'lgan bo'lsa, u holda moliyaviy majburiyatlar va kontragentlar oldidagi kreditorlik qarzlari yuzaga keladi. To'lovchanlik asosida mablag'larning jalb etilishi foiz stavkalari va harajatlarning qoplanishini qiyoslashni talab etadi. Tashqi moliyalashtirishi manbalari muddatlilik sharti bilan ham cheklangandir.

Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarning balanslilik tamoyili shuni anglatadiki, rejalashtirilayotgan harajatlar hajmi umumiy daromad manbalari umumiy hajmiga mos kelishi lozim. Bu yerda shu narsa muhimki, daromad manbalarida ko'zda tutilayotgan qarzlarning davlat byudjeti va nobyudjet fondlarning davlat qarzigacha xizmat ko'rsatish va ularni qaytarish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlardan ortib ketmasligi zarurdir.

Makrodarajada moliyaning balanslilik mikroko'lamdagi moliya barqarorligiga asoslanadi.

Moliyaning balanslilik pul majburiyatlari va qarzlari to'lanishining o'z vaqtida va to'liq bajarilishidp namoyon bo'ladi.

Moliyaning balanslilikining buzilishi muddati o'tgan qarzlarning va majburiyatlarning o'sishida yaqqol namoyon bo'ladi hamda moliyaviy nochorlik (bankrotlik)ka olib keladiki, bunda majburiyatlarni o'zgacha moliyaviy shartlarda qayta ko'rib chiqish va qayta tarkiblashtirish zaruriyat kelib chiqadi.

Moliyaning yana bir tamoyili - maqsadga yo'naltirilganlikdir. Tadbirkorlik faoliyatining an'anaviy maqsadlariga quyidagilar kiradi: foyda olish, ishlab chiqarish rentabelligini va va mehnat unumdorligini oshirish, bozoda barqaror holatni, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning yetarliligini ta'minlash va hokazo. Davlat moliyasining bunday maqsadlariga quyidagilar kiradi: soliqlar, yig'imlar va soliqsiz tushumlar shaklida daromadlarni to'plash; mablag'larni ijtimoiy sohalar, iqtisodiyotning davlat

va munitsipal (mahalliy) sektorlari taraqqiyoti yo'nalishlari va tasdiqlangan parametrlariga mos tarzda, investitsiya dasturlari hamda ichki va tashqi qarzlarning bo'sicha majburiyatlarning bajarilishi holatiga mos tarzda qayta tasdiqlash.

Moliyalashtirish va mablag'larni joylashtirish manbalarini diversifikatsiyalash (qayta tarkiblashtirish) tamoyili ikki yoqlama namoyon bo'ladi:

Mablag'larning turli manbalardan turli ob'ektlar va mulklarga investitsiya qilinishida;

Tadbirkorlik va notijorat faoliyatining turli ko'rinishlari bilan



shug'ullanuvchi ko'p tarmoqli korxonalarning yaratilishida.

Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi umumiy tarzda daromadlar o'sishini ta'minlaydi, bankrotlik riskini pasaytirishga va korxona raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga mazkur tamoyil moliyaviy resurslarning oborotdan chetlashuviga ham olib kelishi mumkinki, ushbu muammo moliyachilar diqqat markazida bo'lishi zarur.

Moliyaning strategik asoslarga tayanuvchanlik tamoyili shuni anglatadiki, aniq maqsadga erishish uchun ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida nafaqat joriy harajatlarni, balki shu bilan birga uzoq va o'rta muddatlarga investitsiya xususiyatidagi qo'yilmalar qilishni ham hisobga olgan holda optimal va samarali moliyalashtirishni ta'minlovchi moliyaviy resurslarni jalb etishning aniq strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Investitsiya xususiyatidagi qo'yilmalar tarkibi YaIMning, ijtimoiy turmush tarzining o'sish istiqbollarini belgilaydi.

Mazkur maxsus tamoyillar qatorida moliya taraqqiyotiga mamlakatda iqtisodiyotni boshqarish umumiy tamoyillarining amal qilishi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday umumiy tamoyillarga quyidagilar kiradi: qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazorat; o'tilgan tajriba va saboqlarni hisobga olish; xo'jalik yuritishning tashqi muhitidagi o'zgarishlar yo'nalishlari va rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish; strategik maqsadlar va rivojlanish istiqbollarini hisobga olish; munozarali va alohida kelishuv talab etilgan vaziyatlarda qat'iy va tezkor qarorlar qabul qilish hamda tadbirlar belgilash; tashqi omillar, masalan, siyosiy nobarqarorlik ta'sirining oqibatlarini oldindan belgilab bo'lmasligini tan olish.

Makro va mikro ko'lamda iqtisodiyotning barqarorlashuvi umumiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bilan ajralmasdir. Shuning uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lmish - YaIM va inflyatsiya, valyuta kursi, ishsizlik darajasi, to'lov balansining holati, mehnatga haq to'lash darajasi, aholi turli qatlamlari daromadlarining o'zaro nisbati, kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari kabilar o'sish sur'atlarining monitoringi moliya sohasidagi real vaziyatni ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.:2023
- 2.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 4—6-son, 39-modda
- 3.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Raqobat to'g'risida. 2012 yil 6 yanvar.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli farmoni



5.O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 – yil 2 fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stependiyalar to’lash mexanizimini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to’g’risidagi” PF-2753-sonli qarori

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

7.Mirzaqul o'g, B. O. R. "HUDUDLARDA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH." KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHNI RAG'BATANTIRISH USULLARI (2023).

8.O'ral, Baytanov, and Norimov Elbek. "ISSUES OF THE INFLUENCE OF THE FINANCIAL SECTOR ON ECONOMIC GROWTH." INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE. Vol. 1. No. 6. 2024.



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

